

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI  
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**"SHARQ MUMTOZ POETIKASI  
MUAMMOLARI:  
NAVOIY VA RUMIY"**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy  
konferensiya materiallari  
2025-yil, 22-aprel*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND  
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE  
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND  
COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international  
scientific-theoretical conference titled*

**"ISSUES IN ORIENTAL CLASSICAL  
POETICS: NAVO'I AND RUMI"**

*April 22, 2025*

Toshkent  
"Nurafshon business"  
2025

**UO'K 845.711.05**

**KBK 133.585.3**

"Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2025. – 1016 b.

**ISBN 978-9910-8871-6-1**

***Mas'ul muharrir:***  
***Shuhrat Sirojiddinov,***  
*filologiya fanlari doktori, akademik*

***Tahrir hay'ati:***

Shuhrat Sirojiddinov (O'zbekiston), Münevver Tekcan (Turkiya), Uzoq Jo'raqulov (O'zbekiston), Agnieska Vojta (Germaniya), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O'zbekiston), Sergey Nikonorov (Rossiya), Akibatxon Ismanova (Qirg'iziston), Makpal Orazbek (Qozog'iston), Aleksey Pilev (Rossiya), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Shafiqqa Yorqin (Afg'oniston), Amir Ne'mati Lima'i (Eron), Nafas Shodmonov (O'zbekiston), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (O'zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O'zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston).

*Sharq-islom madaniyatining ikki buyuk vakili – Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy ijodi badiiyati, tarixiy-tipologik xossalariini ilmiy-nazariy tadqiq etishga qaratilgan "Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy" mavzuidagi mazkur konferensiya materiallari ulkan geografik ko'lami, tipologik talqinlari, tahvilili xulosalarini bilan o'ziga xosdir. To'plam to'rt bo'limdan tashkil topgan. Har bir bo'lim o'zicha mustaqil ilmiy muammoni aks ettirishi bilan birga, Navoiy va Rumiy poetikasi sathida o'zaro umumlashadi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarixiy hamda nazariy poetika, hozirgi adabiy jarayon muammolarini aks ettirishi bilan ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik ahamiyat kash etadi.*

*Ilmiy to'plam adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug'ullanayotgan doktorant, tayanch doktorantlar; magistrant va bakalavriyat bosqichi talabalari, shuningdek, badiiy adabiyot masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.*

To'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 3-apreldagi yig'ilishi qaroriga asosan nashrha tavsiya etilgan.

**Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan  
farqlanishi mumkin.**

**UDC 845.711.05**

**KBK 133.585.3**

Proceedings of the International Scientific-Theoretical Conference on the topic “Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi” – Tashkent: Nurafshon Business, 2025. – 1016 pages.

**ISBN 978-9910-8871-6-1**

***Editor-in-Chief:**  
Shuhrat Sirojiddinov,  
Doctor of Philological Sciences, Academician*

***Editorial Board:***

Shuhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Münevver Tekcan (Turkiye), Uzoq Jo'raqulov (Uzbekistan), Agnieszka Wojta (Germany), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Almaz Ulviy (Azerbaijan), Suvon Meli (Uzbekistan), Sergey Nikonorov (Russia), Akibatkhon Ismanova (Kyrgyzstan), Makpal Orazbek (Kazakhstan), Aleksey Pilev (Russia), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Shafiqa Yorqin (Afghanistan), Amir Ne'mati Lima'i (Iran), Nafas Shodmonov (Uzbekistan), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (Uzbekistan), Gulnoz Khaliliyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan).

*The present conference proceedings, titled “Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi” focus on the scholarly and theoretical exploration of the artistic, historical, and typological dimensions of the works of two eminent figures of Eastern-Islamic culture – Alisher Navoi and Jalaluddin Rumi. With its broad geographical scope, comparative perspectives, and analytical insights, the collection offers a unique contribution to the field. The volume is organized into four sections. Each section explores a distinct scholarly issue while also highlighting the shared poetic features and mutual influences in the works of Navoi and Rumi. The discussions extend to themes in world literature, comparative literary studies, historical and theoretical poetics, and contemporary literary discourse, contributing to both intellectual and aesthetic understanding.*

*This collection is intended for doctoral and postgraduate researchers, as well as master's and undergraduate students in fields such as world literature, literary theory, literary criticism, comparative literature, translation theory, and translation studies. It may also be of interest to anyone engaged in the study of artistic literature.*

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on April 3, 2025.

**The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.**

## MUNDARIJA

- |    |   |    |
|----|---|----|
| 1. | <i>Shuhrat SIROJIDDINOV.<br/>IKKI BUYUK – IKKI TURK (Kirishso'z ornida)</i> | 15 |
|----|---|----|

### I SHO'BA NAVOIY VA RUMIY: BADIYAT VA TIPOLOGIYA

- |     |   |     |
|-----|---|-----|
| 2.  | <i>Узоқ ЖҮРАҚУЛОВ.<br/>МУМТОЗ ПОЭТИКАДА “ИДЕАЛ ОБРАЗ” МУАММОСИ</i>  | 20  |
| 3.  | <i>Қозоқбой ЙЎЛДОШ.<br/>“ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН” ДОСТОНИДА РУҲИЯТ ТАСВИРИ</i>  | 48  |
| 4.  | <i>Сувон МЕЛИ.<br/>“ХАМСА”ДА МУАЛЛИФ “МЕН”И</i>   | 57  |
| 5.  | <i>Gulnar Agig JAFARZADE.<br/>THE INFLUENCE OF RUMI ON ALISHER NAVAI'S PERSIAN RUBAIYAT</i>                                       | 68  |
| 6.  | <i>Münevver TEKCAN.<br/>ALI SHIR NAVA'I'S IMPACT ON THE TIMURID RENAISSANCE</i>   | 79  |
| 7.  | <i>Сергей НИКАНОРОВ.<br/>К ВОПРОСУ О ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ ЭПИТЕТОВ В СБОРНИКЕ “СОКОРОВИЩНИЦА МЫСЛЕЙ” АЛИШЕРА НАВОИ</i>       | 90  |
| 8.  | <i>Maқсуд АСАДОВ.<br/>НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИЖОД ВА ИЖОД АҲЛИ ТАЛҚИНИ</i>   | 99  |
| 9.  | <i>Шоира АҲМЕДОВА.<br/>АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ МАКТУБЛАРИ ҲАҚИДА</i>  | 107 |
| 10. | <i>Гулноз ХАЛЛИЕВА, А. ЮСУПОВА.<br/>ЕВРОПАДА РУМИЙШУНОСЛИК ВА СУЛТОН ВАЛАДНИНГ БҮЮК БРИТАНИЯДА САҚЛНААЁТГАН АСАРЛАРИ ХУСУСИДА</i> | 116 |

	<i>Оразбек МАҚПАЛ, Айнур АНАПИНА.</i>	
11.	<b>ӘДЕБІЕТТЕГІ ИНТЕРМӘТІНДІЛІК: АБАЙ ШЫҒАРМАЛАРЫНЫң ӘЛИШЕР НАУАЙМЕН САБАҚТАСТЫҒЫ</b>	121
	<i>Сайфиддин РАФИДДИНОВ.</i>	
12.	<b>НАВОЙ ВА РУМИЙ ИЖОДИННИҢ ҚИЁСИЙ ЎРГАНИШ МАММОЛАРИ</b>	128
	<i>Dilnavoz YUSUPOVA.</i>	
13.	<b>MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SAMARQAND TALQINI</b>	137
	<i>Илхом ФАНИЕВ.</i>	
14.	<b>ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ ВА АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК</b>	146
	<i>Islamjon YAKUBOV.</i>	
15.	<b>JALOLIDDIN RUMIY MEROSSI VA ZAMONAVIY O'ZBEK ROMANCHILIGI</b>	153
	<i>Gulbahor ASHUROVA.</i>	
16.	<b>TARIXIY SHAXS TASVIRI: NAVOIY OBRAZI</b>	162
	<i>Qahramon TO'XSANOV, Muhammadamin JURAQULOV.</i>	
17.	<b>RUMIY VA NAVOIY IJODIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI</b>	170
	<i>Mahmadiyor ASADOV.</i>	
18.	<b>HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY</b>	
	<i>Sobit AVEZOV.</i>	
19.	<b>BOQIYLIKKA DAXLDOR BITIKLAR</b>	174
	<i>Адхамбек АЛИМБЕКОВ.</i>	
20.	<b>АЛИШЕР НАВОЙИННИҢ ТУРКИЯЛИК ШОГИРДИ</b>	182
	<i>Насиба БОЗОРОВА.</i>	
		187
21.	<b>ХАЗРАТИ МАВЛОНОНОНИНГ "МАЖКОЛИСИ САБЪА" ("ЕТТИ МАЖЛИС") АСАРИДА НАЎТ</b>	191
	<i>Yulduz ZIYAYEVA.</i>	
22.	<b>"OSHIQ-MA'SHUQA-RAQIB" OBRAZI GENEZISI</b>	198
	<i>Olmos XURRAMOV.</i>	
23.	<b>ALISHER NAVOIYNING "HOLOTI PAHLAVON MUHAMMAD"DA TARIXIY HAQIQAT IFODASI</b>	205
	<i>Hasamuddin HAMDARD.</i>	
24.	<b>AMIR ALISHER NAVOIYNING HEROT MAKTABINING TUSHUNCHALARINI TEMURIYLAR SIYOSATIGA OTKAZISHDAGI ROLI</b>	210

25.	<i>Leyla HƏSƏNOVA.</i> <b>AZƏRBAYCAN ƏDƏBİYYATINDA ROMANTİZM</b>	220
26.	<i>Marifat RAJABOVA, Madina IBOTOVA.</i> <b>RUMIY VƏ NAVOIY LIRİKASIDA KO'NGİL METAFORASI</b>	226
27.	<i>Sherxon QORAYEV.</i> <b>MAVLAVIY "GIRDİ DARVESHLAR" NING RAQSU SAMO' MAJLISLARI</b>	231

**II SHO'BA  
SHARQ ADABIYOTIDA POETIKA  
MUAMMOLARI**

28.	<i>Улугбек ҲАМДАМ.</i> <b>ГЛОБАЛ ДҮНӘДАГИ ЙҮЛЧИ ЮЛДУЗЛАР</b>	244
29.	<i>Zafer TOPAK.</i> <b>ALI ŞİR NEVÂYÎ'NİN TÜRKÇE DİVANLARINDAKİ ŞİİRLE İLGİLİ BENZETMELER VE BUNLARIN ŞAIRİN POETİKASINA KATKILARI</b>	254
30.	<i>Gulnoz XALLIYEVA, Adiba MA'DIYEVA.</i> <b>ZAMONAVIY O'ZBEK VA NEMIS SHE'RIYATIDA BAHOR OBRAZINING BADIY TALQINI</b>	266
31.	<i>Dilrabo QUVVATOVA.</i> <b>MUMTOZ POETIKADA MASNAVIYGA OID QARASHLAR TALQINI</b>	275
32.	<i>Byсала НАСИБОВА.</i> <b>КОМПЛЕКС НОВРУЗОВСКИХ ОБРЯДОВ В АЗЕРБАЙДЖАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ</b>	279
33.	<i>Диляра ХАЛИЛОВА.</i> <b>К ВОПРОСУ О МЕЖКУЛЬТУРНОМ ПОТЕНЦIAЛЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ НАВОИ И ПУШКИНА В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА</b>	285
34.	<i>Orazbek MAQPAL, Әнуар ЗЕРДЕ.</i> <b>НҮРЛАН МӘҮКЕНҰЛЫ ШЫҒАРМАШЫЛЫҒЫ ЖӘНЕ АБАЙ ДӘСТУРИ</b>	289
35.	<i>Olim OLТИНБЕК.</i> <b>RAUF PARFI SHE'RLARINING VAZN XUSUSIYTLARI</b>	297
36.	<i>Farhad RAHİMİ.</i> <b>FERAĞÎ'NİN MİFTAHU'L-LÜGAT SÖZLÜĞÜNÜN DÜZENİ VE EL YAZMASI ÜZERİNE</b>	312

37.	<i>Orzigel HAMROYEVA.</i> <b>QOFIYAGA OID BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI</b>	325
38.	<i>Ainisa AKMATOVA, Makhlie NAZAROVA</i> <b>THE SPECIFIC PECULIARITIES OF THE IMAGE "WOMAN" IN THE EPIC MANAS AND IN ALISHER NOVOIY'S WORKS</b>	333
39.	<i>Tojxi HOPOV.</i> <b>АЛИШЕР НАВОЙЙ БОРЛИҚ ФАЛСАФАСИДА КОСМОС, МАКОН ВА ЗАМОН ТАЛҚИНІ</b>	341
40.	<i>Rustam SHARIPOV.</i> <b>МАHMUDUXO'JA BEHBUDIY VA ABDURAUF FITRATNING MILLIY DAVLATCHILIK HAQIDAGI QARASHLARI</b>	353
41.	<i>Feruza BURXANOVA.</i> <b>BADIY SO'Z JILOSI</b>	370
42.	<i>Ольга ЧИЖИКОВА, Ирина ЯНОВСКАЯ.</i> <b>ЧЕРТЫ КОСМИЗМА В СТИХОТВОРЕНИИ НИКОЛАЯ КЛЮЕВА "БЕЛАЯ ИНДИЯ" И В НЕКОТОРЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ АВТОРОВ</b>	377
43.	<i>Komiljon HAMROEV.</i> <b>SHARQ NIKOYATLARINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI</b>	386
44.	<i>Нилуфар УМАРОВА.</i> <b>УЛЖАС СУЛАЙМОНОВ ШЕРЬИЯТИ</b>	393
45.	<i>Zebiniso BEKMURADOVA.</i> <b>PAREMIYADA XIAZM</b>	399
46.	<i>Азамат ХАЙРУЛЛАЕВ.</i> <b>НОРМУРОД НОРҚОБИЛОВ ҲИКОЯЛАРИДА ОНОМАСТИКА</b>	404
47.	<i>Салават АЮПОВ.</i> <b>ОТЗВУКИ РУССКОЙ КЛАССИКИ В ЧЕХОВСКОМ ЭТЮДЕ "БЕЗНАДЕЖНЫЙ"</b>	422
48.	<i>پوھنیار امرالله محمدی</i> بررسی زبان شناسانه استعارة مفهومی عشق در اشعار فارسی نوابی <i>Tozagul MATYOQUBOVA.</i>	429
49.	<i>G'AFUR G'ULOM SHE'RİYATIDA LIRIK QAHRAMON VA KECHINMANING POETIK IFODASI</i>	437
50.	<i>Ирина ЯНОВСКАЯ, Ольга ЧИЖИКОВА.</i> <b>СКУЛЬПТУРНЫЕ ОБРАЗЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А.С.ПУШКИНА</b>	445

	<i>Шоҳрат Нусрат МАМЕДОВА.</i>	
51.	<b>ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ СЕМАНТИКА ДЕТСКИХ ДРАМ МИРВАРИД ДИЛЬБАЗИ</b>	453
52.	<i>Umida ABDULLAYEVA. "SHAYX SAN'ON" QISSASIDA USTOZ-SHOGIRD MASALASI</i>	466
	<i>Yorqinoy NASIRDINOVA.</i>	
53.	<b>ALISHER NAVOIY OBRAZI FRANSUZ ADABIY VA TARIXIY TAFAKKURIDA</b>	470
54.	<i>Sayid Nurulloh AMINYOR. ALISHER NAVOIY MA'RIFATNING PORLOQ QUYOSHI</i>	478
55.	<i>Qatabek BABAYEV, Munisa BOLTAYEVA. ÜBERSETZUNGSMETHODE VON TECHNISCHEN TEXTEN</i>	491
	<i>Нуриддин УБАЙДУЛЛАЕВ.</i>	
56.	<b>"ТАНАЗЗУЛ" РОМАНИДА МУСУЛМОНҚУЛ МИНГБОШИ ОБРАЗИ</b>	496
57.	<i>Matluba MAMADIYAROVA. "ALPOMISH" VA "BEOVULF" EPOSALARIDA AYOL FENOMENI</i>	503
58.	<i>Mahbuba QARSHIYEVA. ALISHER NAVOIY: MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK</i>	508
	<i>Feruza SAPAYEVA.</i>	
59.	<b>MAXTUMQULI ASARLARINING TURKIY TILLARDAGI TARJIMALARI VA ULARNING TADQIQI</b>	514
60.	<i>Bahor SHUKUROVA. BADIY ADABIYOTDA RAMZIY OBRAZLAR TALQINI</i>	522
	<i>Nodira SAIDOVA.</i>	
61.	<b>"NAVOIY VA ILOHIYOT"DA "GERMENEVTIK DOIRA" DAN FOYDALANISH</b>	530
	<i>Sevinchoy YOQUBOVA.</i>	
62.	<b>XX ASR BOSHLARI O'ZBEK SHE'RIYATINING YANGILANISH OMILLARI</b>	534
	<i>Нибуфар ДИЛМУРОДОВА.</i>	
63.	<b>АСАД ДИЛМУРОД ЭССЕЛАРИНИНГ ГЕНЕТИК АСОСЛАРИ, УЛАРДА МУАЛЛИФ ИФОДА УСЛУБИ ВА БАДИЙ- ЭСТЕТИК КОНЦЕПЦИЯСИ</b>	541
	<i>Nodira XUDOYNAZAROVA.</i>	
64.	<b>JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY JAHON ADABIYOTI KONTEKSTIDA</b>	547

	<i>Maftuna NORQULOVA.</i>	
65.	<b>"HALI HAYOT BOR..." QISSASIDA QAHRAMON KONSEPSIYASI</b>	552
66.	<i>Dilnavoz BOYZOQOVA.</i> <b>"YUSUF VA ZULAYHO" QISSASIDA OBRAZ TALQINI</b>	560
67.	<i>Махфузахон ХОМИДОВА.</i> <b>"БАДОЙИЙ УЛ-БИДОЯ"ДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК</b>	568

**III SHO'BA  
NAVOIY VA RUMIY IJODIDA MA'RIFAT VA  
MILLIYAT MASALALARI**

	<i>Nafas SHODMONOV.</i>	
68.	<b>"LAYLI VA MAJNUN" DOSTONI SYUJETI VA G'OYASINI SHAKLLANTIRGAN BA'ZI OMILLAR</b>	578
69.	<i>DR. KEMAL YAVUZ ATAMAN.</i> <b>OSMANLI DEVLETİ'NİN MANEVİ VE HAKİKİ MÜESSİSİ MEVLÂNÂ CELÂLEDDİN-İ RÛMÎ</b>	584
70.	<i>G'ayrat MURODOV, Shahlo SA'DULLAYEVA.</i> <b>MURSHID VA MURID MUNOSABATI</b>	592
71.	<i>Нұсратулло ЖУМАХҰЖА.</i> <b>ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ "МАСНАВИЙ МА'ННАВИЙ" АСАРИНИНГ КИРИШ ҚИСМИ МАЗМУНИГА ЧИЗГИЛАР</b>	602
72.	نویسنده: پروفیسور دکتر فضل الرحمن فقیهی هروی نقش امیر علیشیر نوابی در تمثیل‌آفرینی دوره تیموریان هرات	607
73.	<i>Darmonoy O'RAYEVA.</i> <b>RUMIY VA HOZIRGI O'ZBEK SHOIRLARI IJODIDA DUNYO TA'RIFI</b>	619
74.	<i>Ulkar BAKHSHIYEVA.</i> <b>THE ARTISTIC-AETHETIC FEATURES OF THE MYTHOLOGICAL APPROACH IN NIZAMI GANJAVI'S POEM "ISKANDARNAMA" (IN THE CONTEXT OF LEGENDS RELATED TO KHIDR)</b>	624
75.	بشير احمد قرداش صالح	634
76.	<i>Odiljon AVAZNAZAROV.</i> <b>NAVOIY DOSTONLARIDA "QADAM" METAFORASI</b>	642

	<i>Toji NOROV.</i>	
77.	<b>ALISHER NAVOIY FALSAFIY MEROSINING ILOHIY-MA'RIFIY VA MAFKURAVIY ASOSLARI</b>	649
78.	<i>Saodat MUMINOVA. AQL VA IDROK O'RTASIDAGI MUVOZANAT</i>	662
	<i>Мустафа БАЙЭШАНОВ.</i>	
79.	<b>"ПЯТЕРИЦА" НАВОИ В СОКРОВИЩНИЦЕ МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ</b>	667
80.	<i>زینب نوروز علی ؛ شاد محمد سهاب جایگاه عقل در اشعار امیر نظام الدین علیشیر نوابی</i>	671
	<i>Usmon QOBILOV.</i>	
81.	<b>ON THE INTERPRETATION OF THE TRUE OF HUMANITY AND THE UNIVERSE IN ARTISTIC CREATIVITY</b>	678
82.	<i>دکتر نورالرخمن ناصح انسان كامل و انسان شناسى از نظر على شير نوابى و مولانا با روپىكىد تېلىقى</i>	687
83.	<i>Адхамбек АЛИМБЕКОВ. АЛИШЕР НАВОЙ ҲАҚИДА ТУРК ДОСТОНИ</i>	693
	<i>Hamza ATEŞ, Kemal ATAMAN.</i>	
84.	<b>MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY ASARLARIDA İJTIMOIY O'ZGARISHLAR</b>	700
85.	<i>Мавжуда НУРИДДИНОВА, “БОР ҚИТОБИ, ЛЕК ПАЙГАМБАР ЭМАС...”</i>	710
86.	<i>Shohista NIYOZOVA. MILLIY QADRIYATNING TAMAL TOSHI</i>	720
87.	<i>Duygu KOCA. ALI ŞİR NEVÂYÎ'NİN ESERLERİNDEN AHLAKÎ DEĞERLER</i>	727
88.	<i>Iroda ISHONXANOVA. XX ASR 40-YILLARIDA NAVOIYSHUNOSLIK</i>	
89.	<i>Ойдин ТУРДИЕВА, Ойша ШУКУРОВА. РУМИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ТИНЧЛИК ҒОЯСИ ТАЛҚИНИ</i>	734
90.	<i>Nargiza SHOALIYEVA. RUMIY VA NAVOINING ISHQQA OID QARASHLARI</i>	741
		747

**IV SHO'BA  
NAVOIY VA RUMIY  
YOSH TADQIQOTCHILAR TALQINIDA**

91.	<i>Malika SUYUNOVA.</i> <b>HAMZA VA XALQ TEATRI</b>	766
92.	<i>Laylo TO'YCHIYEVA.</i> <b>"ULISS" ROMANIDA TRAGIK VAZIYAT XRONOTOPI</b>	772
93.	<i>Nilufar HAITOVA.</i> <b>HAMID OLIMJON – NAVOIYSHUNOS</b>	
94.	<i>Shaxnoza TURSUNOVA.</i> <b>SIZIF OBRAZI: TURFA TALQINLAR</b>	777
95.	<i>Madina VAHODOVA.</i> <b>"NAVOIY KIRMAGAN UYLAR QORONG'U"</b>	781
96.	<i>Sayohat ARZIQULOVA.</i> <b>FATMA SHENGIL SUZAR IJODIDA RUMIY AN'ANALARI</b>	786
97.	<i>Osiyo SIDDIQOVA.</i> <b>KOMIZM XÜSUSIDA BIR-IKKI SO'Z</b>	794
98.	<i>To'lg'anoy QULJANOVA.</i> <b>ASQAR MAHKAM IJODIDA RUMIYONA OHANGLAR</b>	
	<i>Sabinabonu BERDIYEVA.</i>	802
99.	<b>"ADABIYOTSHUNOSLIK LUG'ATI" NING ELEKTRON MOBIL ILOVASINI YARATISH XUSUSIDA</b>	810 815
100.	<i>Huriniso MENGLIYEVA.</i> <b>DUNYONING AZALIY SAVDOSI</b>	819
101.	<i>Баходир ЖОВЛИЕВ.</i> <b>УНИВЕРСАЛ ОБРАЗЛАР КҮЛАМИ</b>	825
102.	<i>Zilola JO'RAYEVA.</i> <b>NAVOIY VA RUMIY ASARLARIDA TASAVVUF TIMSOLLARI</b>	
103.	<i>Divora O'KTAMOVA.</i> <b>ALISHER NAVOIY FARDLARINING O'RGANILISHI</b>	829
	<i>Hediye Zeynep KÖŞEK.</i>	
104.	<b>ALI ŞİR NEVÂİ VE MEVLÂNÂ CELÂLEDDİN RUMÎ'NİN ESERLERİNDE TAKVÂ</b>	834 839
105.	<i>Selenay SAHİN.</i> <b>ALİ ŞİR NEVÂİ VE MEVLÂNÂ'NIN SANATSAL VE DÜŞÜNSEL YAKLAŞIMLARININ MİMARİ ESERLER ÜZERİNDEKİ ETKİSİ: SOSYO-KÜLTÜREL BİR DEĞERLENDİRME</b>	849

	<i>Nodirjon G'AFUROV, Shahnoza YO'L DOSHEVA.</i>	
106.	<b>NAVOIY "XAMSA"SI VA RUMIY "NAYNOMA"SIDA "NAY" TIMSOLI</b>	856
107.	<i>Noila ROXATALIYEVA.</i> <b>"DEVONA" VA "JUNUN" TUSHUNCHALARI TALQINI</b>	861
	<i>Sema DÜLGAR.</i>	
108.	<b>ŞAİR FÂTIMA HANIM VE KÜTAHYA MEVLEVÎHÂNESİNE ETKİLERİ</b>	866
	<i>İrem ERDEM.</i>	
109.	<b>ALÌ ŞIR NEVAÎ'NİN MUHAKEMETÜ'L-LUĞATEYN ADLI ESERİNDE EŞANLamlılık</b>	872
	<i>Dilfuza ISMOILOVA.</i>	
110.	<b>"BIR AYOL HAYOTIDAN 24 SOAT" NOVELLASINING KOMPOZITSION TAHLLİLİ</b>	881
111.	<i>Beyza ÖZER.</i> <b>MËKANDAN LÂMEKÂNA: ALÌ ŞIR NEVAÎ VE MEVLÂNÂ</b>	888
	<i>Ahmet Berat COŞKUN.</i>	
112.	<b>MUHÂKEMETÜ'L-LUGATEYN'DE GEÇEN İŞ/HAREKET BILDIREN FIILLER VE BU FIILLERİN KUZEYBATI/KIPÇAK TÜRK LEHÇELERİNDEKİ GÖRÜNÜMLERİ</b>	897
113.	<i>Aziz NORQULOV.</i> <b>"NASOYIM" PINJIDAGI UMR</b>	910
114.	<i>Saodat FAYZIYEVA.</i> <b>JADID MATBUOTIDA NAVOIY IJODI TADQIQI</b>	916
115.	<i>Jobir ISMATILLOYEV.</i> <b>MUNIS IJODIDA NAVOIY AN'ANALARI</b>	
116.	<i>Dovud XO'JAQULOV.</i> <b>NAVOIY VA RUMIY IJODIDA SABR TUSHUNCHASI</b>	924
117.	<i>Nazokat G'OFUROVA.</i> <b>BILGAMISH - BUYUK SHARQNING QADIM DURDONASI</b>	930
	<i>Nargiza SHAMIYEVA, Jazira TULEGENOVA,</i>	
	<i>Nargiza XOLBOBOYEVA.</i>	934
118.	<b>COMPARATIVE STUDY OF MEANING EXPANSION AND NARROWING OF QUALITATIVE ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK</b>	938
119.	<i>Go'zal OMONOVA.</i> <b>JALOLIDDIN RUMIY HIKOYALARIDA XULQ-ATVOR MASALASI</b>	944
120.	<i>Madina TURSUNOVA.</i> <b>MARLO VA SHEKSPIR: IJODIY PARALLELLAR VA FARQLAR</b>	949

	<i>Shodiya TURSUNALIYEVA.</i>	
121.	<b>"ABU RAYHON BERUNIY" DRAMASIDA FOJIAVIY VAZIYATLAR TALQINI</b>	952
	<i>Gulzoda SAFAROVA.</i>	
122.	<b>ERKIN A'ZAMNING "ANOYINING JAYDARI OLMASI"</b>	957
	<b>HIKOYASIDA IDILLIYAVIYLIK</b>	
	<i>Nozima KARIMOVA.</i>	
123.	<b>YOVUZ BAHODIR O'G'LINING "YONAYOTGAN BUXORO"</b>	964
	<b>ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT</b>	
	<i>Suhrobjon ZIYODOV.</i>	
124.	<b>YOSHLAR SHE'RIYATIDA NAVOIYGA MUROJAAT</b>	970
	<i>Sherzod USMONOV.</i>	
125.	<b>ZEBO MIRZO SHE'RIYATIDA METAFORIK OBRAZLAR</b>	977
	<i>Narmin BABAева.</i>	
126.	<b>ЭТИОЛОГИЧЕСКАЯ СЕМАНТИКА МИФОЛОГИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ</b>	983
	<i>Yüsra KARACA.</i>	
127.	<b>HZ. MEVLANA'NIN YOLU VE HAT SANATI</b>	993
	<i>Lobar BERDIYEVA.</i>	
128.	<b>SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA RAMZIYLIK</b>	999
	<i>Gulsevar MAMANOVA.</i>	
129.	<b>"YUSUF VA ZULAYHO": GENEZIS MASALASI</b>	
	<i>Shahzoda VALIJONOVA.</i>	1006
130.	<b>NAVOIY E'TIROF ETGAN XAMSANAVIS</b>	
	<i>Dilrabo HAYDAROVA.</i>	
131.	<b>O'ZBEK-TURK HIKOYALARIDA KOMIKLIK</b>	1014
	<i>Saida DAVRONOVA.</i>	
		1018
132.	<b>ALISHER NAVOIY FAOLIYATINING O'ZBEKİSTON KİNOFOTOFONO MILLİY ARXIVI HUJJATLARIDA YORİTİLISHİ</b>	1022
	<i>Mirjalol SODIQOV.</i>	
133.	<b>"BUYUKLAR TUHFASI" - MUMTOZ ADABIYOT TARIXIGA DOİR TADQIQOT</b>	1029
	<i>Muhabayo İSTAMOVA.</i>	
134.	<b>AYOL OBRAZI JOZIBASI</b>	1036
	<i>Iroda ESHMURADOVA.</i>	
135.	<b>YANGI DARSLIKLAR HAQIDA</b>	1041

136.	<i>Ruxsora UNAROVA</i> <b>AHMAD A'ZAM HIKOYALARIDA "JUMBOQ" TASVIRI</b>	1048
137.	<i>Maftuna USMONOVA</i> <b>NAVOIYDA "SHOH" VA "GADO" TUSHUNCHALARI TALQINI</b>	1052
138.	<i>Nigora TOSHMURODOVA</i> <b>FURQAT VA MA'RIFATPARVARLIK G'OYASI SHARIF YUSUPOV TALQINIDA</b>	1057
139.	<i>Muxlisa ASHIRMATOVA</i> <b>NAVOIY VA RUMIY: MUSHTARAK DIDAKTIKA</b>	1068
140.	<i>Dilnavoz NAJIMOVA</i> <b>MUMTOZ TURKIY ADABIYOTNI BOLALAR ONGIGA YETKAZISH AMALIYOTIGA DOIR</b>	1074
141.	<i>Parvina NARZULLOYEVA</i> <b>XAMSA DOSTONLARIDA UCHRASHUV MOTIVINING O'RNI</b>	1083
142.	<i>Roza QURBONOVA</i> <b>NAVOIY VA RUMIY ADABIY MEROSINING BOSHQA TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI</b>	1090
143.	<i>Nigina FAYZULLAYEVA</i> <b>A.S.PUSHKIN VA F.M.DOSTOYEVSKIY ROMANLARIDA EPISTOLYAR JANRNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI</b>	1097
144.	<i>Ayşe ÖZTOKLU, Sümeyye ÇAĞLAR YILMAZ</i> <b>MEVLÂNÂ CELÂLEDDİN RÛMÎ'NİN MESNEVİ'SİNDE Hz. MUSA KISSASINDAN KESİTLER</b>	1104

**Mahmadiyor ASADOV,**

*PhD, dotsent*

*(ToshDO'TAU, O'zbekiston)*

*Doi. 10.52773/tsuull.conf.2025/CZTN1307*

## **HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada adabiyotshunoslikda "homo poetikus" – ya'ni ijodkor inson obrazining shakllanishi, nazariy asoslari va uning Sharq hamda G'arb adabiyotlaridagi talqinlari tahlil qilinadi. Pol Rikur, Yan Parandovskiy, Mixail Baxtin singari nazariyotchilar nuqtayi nazaridan homo poetikus tushunchasining mohiyati olib beriladi. Shuningdek, maqolada Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy ijodida homo poetikus konsepsiyanining badiiy ifodasi chuqur tahlil etiladi. Sharq mumtoz adabiyotidagi bu tushuncha insonning estetik, ruhiy va ma'naviy yuksalishini aks ettiruvchi falsafiy model sifatida talqin qilinadi. Maqolada homo poetikus insonni so'z, obraz va metafora orqali borliqni anglaydigan, ijodiy tafakkurga ega bo'lgan mayjudot sifatida yoritiladi. Homo poetikusning badiiy, ruhiy va ijtimoiy funksiyalari alohida belgilar bilan olib beriladi.

**Annotation.** This article explores the concept of homo poeticus – the creative individual – as a literary figure, its theoretical foundations, and its interpretations in both Eastern and Western literary traditions. The essence of the homo poeticus concept is examined through the perspectives of theorists such as Paul Ricoeur, Jan Paradowski, and Mikhail Bakhtin. The paper also presents an in-depth analysis of the poetic representation of homo poeticus in the works of Alisher Navoi and Jalaluddin Rumi. In classical Eastern literature, this concept is viewed as a philosophical model that reflects human aesthetic, spiritual, and moral elevation. The article describes homo poeticus as a being who comprehends existence through words, symbols, and metaphors, possessing a unique creative consciousness. The aesthetic, spiritual, and social functions of homo poeticus are highlighted with distinct characteristics.

**Kalit so'zlar:** Homo poetikus, ijodkor shaxs, poetik tafakkur, metafora, estetik ong, Sharq adabiyoti, Navoiy, Rumi, badiiy obraz, ma'naviy yuksalish, ruhiy tajriba, badiiy talqin.

**Keywords:** Homo poeticus, creative individual, poetic consciousness, metaphor, aesthetic perception, Eastern literature, Navoi, Rumi, artistic image, spiritual elevation, inner experience, literary interpretation.

Adabiyotshunoslikda insonni badiiy obraz sifatida o'rganish ko'plab nazariy yo'naliishlarning markaziy masalasi hisoblanadi. Insonni poetik talqin qilishda XX asr oxirlarida shakllangan "*homo poeticus*" konsepsiysi g'oyat muhim nazariy model sifatida e'tirof

etiladi. Bu konsepsiya doirasida ijodkor shaxs – ya’ni shoir yoki yozuvchi – shunchaki badiiy matn yaratuvchisi emas, balki ruhiy tajriba tashuvchi, jamiyat bilan madaniy muloqot qiluvchi, tarixiy ongni aks ettiruvchi va estetik qadriyatlarni shakllantiruvchi ijtimoiy subyekt sifatida qaraladi. *Homo poetikus* (*Homo Poeticus*) tushunchasi adabiyotda insonning estetik, ijodiy va ma’naviy tabiatini o’rganishga doir yondashuvlar orasida alohida o’rin tutadi. Bu atama lotin tilidan tarjima qilinganda “**poetik odam**” yoki “**ijodkor shaxs**” degan ma’noni anglatadi. *Homo poetikus* – bu insonni ramzlar, timsollar, metaforalar orqali tafakkur qiluvchi, go’zallikni yaratishga va anglashga intiluvchi mavjudot sifatida tasvirlaydi. U – insonning eng muhim xususiyatlari bo’lmish ijodkorlik, yaratuvchanlik va estetik-intellektual yuksalishda namoyon bo’ladigan inson modeli sifatida tasavvur qilinadi. Yana boshqacha qilib aytganda, *homo poetikus* – bu ijodkor shaxsning adabiyotshunoslikdagi nazariy modeli bo’lib, u insonni **so’z, tasavvur, obraz** orqali o’zini va dunyoni anglaydigan, estetik tafakkur orqali borliqni qayta yaratadigan mavjudot sifatida talqin qiladi. *Homo poetikus* – bu inson tafakkurining badiiy shakl orqali ifodalanadigan qiyofasidir. U hayotga poetik qaraydi, o’zining mavjudligini so’z, obraz va metafora orqali anglatadi. *Homo poetikus* – bu so’z orqali haqiqatni izlovchi, go’zallikni yaratuvchi va badiiy tafakkurga ega insondir.

“*Homo poetikus*” tushunchasi qadimgi yunon estetikasi, islom falsafasi va hozirgi badiiy tafakkurda shakllangan kontseptual modelga ega. Bu tushuncha ilk bor yunonlarda “*homo logos*” – ya’ni “so’z bilan mavjud bo’lgan inson” g’oyasida namoyon bo’lgan bo’lsa, keyinchalik Sharq mumtoz adabiyotida bu g’oya “kalom”ga, ya’ni ilohiy so’zga asoslangan umumbashariy tafakkurga aylangan.

G’arbda *homo poetikusni* chuqur nazariy asoslab bergan olimlardan biri, fransuz fenomenolog va faylasufi Pol Rikur (Paul Ricoeur) bo’lib, u o’zining “Talqin nazariyasi: nutq va ortiqcha ma’no” kitobida badiiy so’z va uning ma’nolari haqida chuqur mulohazalar keladi. Unga ko’ra, “*homo poetikus* – bu so’zning ichki qatlamlarini, yashirin konnotatsiyalarini ochib beruvchi, metaforani bir vaqtning o’zida estetik, semantik va ontologik maydonga olib chiqadigan mavjudotdir” (Ricoeur 1976, 81). Qisqa qilib aytganda, “*inson*

*tafakkurining ontologik maydoni*"dir. Rikurning fikricha, metafora – bu faqat stilistik bezak emas, balki haqiqatga yo'l ochuvchi kognitiv harakatdir.

*Homo poetikus*, Rikur talqinida, mavjudlikni oddiy tilda emas, balki badiiy obraz va poetik tilda anglaydi. Shoирning metafora yaratish salohiyati – bu mavjudlik bilan tafakkur o'rtasidagi "egri ko'priк"dir. Rikur metaforani "yangi haqiqat yaratish vositasi" deb ataydi va ijodkorni aynan shu jarayonni amalgalashiruvchi subyekt sifatida ko'radi. Pol Rikurning nazariyasiga ko'ra, homo poetikus quyidagi vazifalarni bajaradi:

- borliqni badiiy idrok etadi;
- metaforalar orqali reallikni keng tasvirlaydi;
- poetik til orqali insoniyatni yangi tafakkur ufqlariga olib chiqadi;
- semantik ortiqcha ma'nolarni madaniy tajriba bilan uyg'unlashtiradi.

Demak, Rikur nazariyasida homo poetikus – bu shunchaki shoир emas, balki yangi ma'no yaratuvchi, metafizik tafakkur egasi bo'lgan inson timsolidir.

Polyak adabiyotshunosi Yan Parandovskiy esa *homo poetikusni* "o'z hayotini ham estetik shakl sifatida quruvchi inson" deb ta'riflaydi. Parandovskiyning "So'z kimyosi" asarida u shoирni "ruhiy tajribaning eng nozik manzaralarini so'z orqali shakllantira oluvchi mavjudot" sifatida tasvirlaydi. Bu fikr *homo poetikus* konsepsiyanining mohiyatiga to'la mos tushadi: **ijodkor nafaqat tafakkur qiladi, balki hayotni badiiy shaklda qayta yaratadi**. Yan Parandovskiy homo poetikusni shunday tasvirlaydi: "Adabiyotda inson qalbini shu qadar yuqori qo'ygan holda, uning a'zoyi-badaniga bir qadar pepisandlik bilan qaraydi. Mana, necha asrdirki, unda insonning homo poetikus – poetik odam deb atash mumkin bo'lgan o'ziga xos bir turi yashab, rivojlanib keladi. Uning tashqi ko'rinishi, qiyofasi eng mayda tafsilotlarigacha, ya'ni Petroniyga xos bo'lgan ideal darajadagi mutanosiblikda ishlab chiqilgani holda, Kvazimoda kabi shakl jihatdan badbashara qilib o'zgartirilgan. Biroq tananing barcha a'zolari bir xilda, birday ahamiyatga ega emas. Qo'l-oyoqlar – ularsiz ish bitmaydi: "homo poetikus" yuradi, yuguradi, quchadi, mahkam qisadi... uning qo'llari qurolning har qanaqasi bilan tanish.

Ko'pincha qo'llar, ayniqsa, ayollarning qo'llari go'zal she'rlarga mavzu bo'ladi, lirika qo'llarni madh etishda bitmas-tugunmasdir...

"Homo poetikus" kuladi, yig'laydi, lablari doim harakatda: qichqiradi, oh-voh qiladi va juda ko'p gapiradi, biror marta ham tutilmay soatlab gapira oladi, jumjalarni bekami-ko'st tuzgan va grammatika qoidalalariga mutlaq amal qilgan holda nazm va nasrda ham so'zlay oladi." (Парандовский 2022, 248-249)

Rus nazariyotchisi Mixail Baxtin esa ushbu konsepsiyanı romanning dialogik tabiatı orqali tushuntirib, ijodkor shaxsnı polifonik (ko'p ovozli) xarakter va tarixiy muhit bilan doimiy aloqada bo'lgan subyekt sifatida tasvirlaydi. Olimning fikricha, shoirning nutqi – bu tarixiy, madaniy va falsafiy jarayonlarning bir nuqtada jamlanishi bo'lib, ijodkor shaxs aynan shu kontekstda mustaqil pozitsiyaga ega dialogik tafakkur egasi sifatida shakllanadi.

Badiiy ijodda nemis ma'rifatparvar mutafakkiri Johann Wolfgang Gyote fenomenidagi homo poetikus konsepsiysi ham eng murakkab va ko'p qirrali shakllardan biridir. Uning "Faust" tragediyasi ijodkor inson – ya'ni *homo poetikus*ning doimiy izlanish, izardrob, bilimga tashnalik, hayotdan ma'no izlashdagi dramatik holatini ifodalaydi. Gyotening o'zi bu asarni yozishda umrining katta qismini sarflagan – bu esa uning ijodiy konsepsiyasining qanchalik chuqur va falsafiy ekanligini ko'rsatadi. "Faust"ning bosh qahramoni tafakkurga chanqoq, ruhiy qoniqmaslik holatida yashovchi, bilim va haqiqatni topmoqchi bo'lgan ijodkor shaxsdir. U ilm-fan, sehr, din, tabiat, san'at, hatto jin va farishtalar bilan muloqot qiladi, ammo qalb tinchligini, ichki halovatni topa olmaydi. Homo poetikus Gyote talqinida – nainki ruhiy sezgi, balki tafakkur orqali muttasil o'zgarib boruvchi ongdir. Gyote ijodkor shaxsga bir yoqlama baho bermaydi, u ijodkorni ham sharaflaydi, ham tanqid qiladi, ham unga rahm qiladi. Faust – bu kamolotga yo'l olgan insondir: u xatoga yo'l qo'yadi, lekin baribir o'sadi, o'sib boraveradi. Gyote uchun homo poetikus – bu hayotni tushunish, uni shakllantirish, unga ta'sir etish istagida yondashadigan ongli, faol, tafakkurli insondir. Uning har bir harakati, so'zi, izardrobi – bu ma'naviy o'sish pillapoyasidir.

Shunday qilib, Gyote ijodida homo poetikus – bu borliqni shubha, tafakkur, tanlov, kurash va ruhiy o'zgarishlar orqali anglaydigan, oxir-oqibatda o'zini topadigan inson timsolidir. "Faust" asarida

homo poetikusni bilimga tashna, g'am va iztirobda yashovchi, ammo o'z qadrini topishga harakat qiluvchi inson sifatida aks ettiradi. Faust – bu metafizik izlanishda doimiy harakatdagi shaxsdir. Gyote ijodida homo poetikus – bu o'zini tanimoqchi, borliqni anglamoqchi va o'z ruhini yaratuvchanlik, teran tafakkur orqali ozod etmoqchi bo'lgan inson obrazidir.

O'tgan asrda shakllangan "homo poetikus", ya'ni ijodkor inson, poetik odam, so'z orqali borliqni idrok etuvchi va uni o'zgartiruvchi shaxs konsepsiysi, aslida Sharq mumtoz adabiyot uchun olamshumul yangilik emas. ZOTAN, ayni konsepsiya bilan klassik adabiyotni talqin qilish ijod estetikasining ayrim qirralarini ochishda qo'l keladi. Ayniqsa, Sharq mumtoz adabiyotining ikki ulug' siyoshi – Jaloliddin Rumi va Alisher Navoiy ijodida homo poetikus obrazi o'zining nazariy va badiiy talqini bilan ajralib turadi. Sharq mumtoz adabiyotining bu ikki buyuk namoyandalari ijodida ayni tushuncha chuqur ma'rifiy, falsafiy va estetik ma'nolar bilan boyitilgan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida ijodkorlikni ilohiy ilhom, axloqiy poklik, insoniy mas'uliyat va ruhiy yuksalish bilan uyg'un holda talqin etadi. Hazrat Navoiyning ijodida poetik odam (*homo poetikus*) konsepsiysi insonning komillikka yetishidagi asosiy shart sifatida ko'rildi. Uning fikricha, ijodiy jarayon insonni faqat estetik zavqqa yetaklamaydi, balki uni ma'naviy va axloqiy kamolot sari ham olib boradi. Navoiy "Xamsa" va boshqa yirik asarlarida insonning yaratuvchanligini uning ma'naviy kamolotga yetishidagi muhim omil sifatida ko'rsatadi. Navoiy ijodiy jarayon orqali inson o'zligini anglab yetishi, ilohiy mohiyat bilan uyg'unlashib, "komil inson" darajasiga ko'tarilishi mumkinligini ta'kidlaydi, ayni holatni bosh konsepsiya o'laroq ijod markaziga qo'yadi.

Navoiy ijodida *homo poetikus* konsepsiysi so'z, she'r, ilhom, shoirlik masalalari bilan uzviy bog'liqdir. U shoirlik mas'uliyatini his qiluvchi, so'zda ilohiy haqiqatni aks ettirishga intiluvchi inson sifatida gavdalanadi. Navoiyning "Xamsa", "Lison ut-tayr" va boshqa asarlaridagi badiiy obrazlar, "Xazoyin ul-maoniy" devondagi g'azallari aynan shu konsepsiyanı yoritadi. Navoiy shoirni estetik ijodkor emas, balki jamiyatning ma'naviy qomusi sifatida tasvirlaydi. Uning "Lison ut-tayr" asarida esa badiiy obrazlar orqali

ruhiy sayohat va ilohiy haqiqatni izlovchi *homo poetikus* timsoli yaratiladi.

Masalan,

*Borg'ali ul husn ganji g'am buzug' ko'nglumdadur,*

*Ajdaho evi bizing vayrona bo'lди oqibat.*

(“G’aroyib us sig‘ar” 72-g‘azal)

Bu baytda Navoiy “husn ganji” – go’zallik xazinasining g‘ami endi uning qalbini buzgani, vayrona qilgani haqida yozadi. Bu vayrona qalb esa – ijodkor qalbi. Bunday yondashuvda *homo poetikus* – bu g‘am bilan yashovchi, g‘am orqali ilhomlanadigan, so‘z orqali ruhiy iztirobini badiiy xazina (ganj)ga aylantiruvchi shaxsdir.

*Chekma un, ohim ko'r, ey Majnunki, bulbul ko'p fig'on*

*Chekti, o'rtangan vale parvona bo'lди oqibat.*

(“G’aroyib us sig‘ar” 72-g‘azal)

Mazkur baytda esa shoir ichki azobini ochiq tasvirlaydi. U o‘zining fig‘oni, iztiroblarini Majnunga qiyos qiladi – bu orqali shoir o‘zini *homo poetikus*, ya’ni g‘am va ohdan she’r yaratuvchi ruhiy mavjudot sifatida ko’rsatadi.

“Parvona” – fano va ilohiy ilhomga sho‘ng‘igan shoirning metaforasidir. Shoir ishq yong‘inida yonadi va o‘zini yo‘qotadi, ammo bu yo‘qotish o‘zini topish yo‘lidir. Bu talqin “Lison ut-tayr”dagi Shayx San’on obrazini eslatadi. Shayx San’on ham Navoiy talqinidagi *homo poetikus* konsepsiyasidir.

Bu Sharq badiiy tafakkuridagi *homo poetikus*: u so‘z bilan nafaqat go’zallik yaratadi, balki Haqqa eltuvchi yo‘lni bosadi. Ilhom manbayi – bu g‘am, lekin natija esa – badiiy go’zallik.

Maylono Jaloliddin Rumi ijodida poetik odam insonning mohiyatan ilohiy ishqqa yo‘g‘rilgan mavjudot ekanini ta’kidlaydi. Rumi uchun insonning mavjudligi ijod va muhabbat orqali haqiqiy mohiyatini topadi. U insonni nafaqat oddiy mavjudot, balki poetik shakllanish, izlanish va yaratish jarayonining markazidagi subyekt sifatida tasavvur qiladi. “Masnaviyi ma’naviy” va “Devoni Kabir” kabi asarlarida Rumi insonning mohiyatini ijod orqali anglash imkonini beradi, ijod insonning asl mohiyatini ochib beruvchi vosita sifatida ko‘rinadi. Rumi insonning ijodiy faoliyatini uning ruhiy kamolot sari yo‘lidagi asosiy vosita sifatida ko‘rib, insonni Allohga eltuvchi ilhom manbayini she’riyat orqali izohlaydi.

Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy Ma’naviy” asarida shoir – ilhomni Haqdan oluvchi va uni kalom orqali insoniyatga yetkazuvchi ilohiy vositachi sifatida gavdalanadi. Rumiyya homo poetikus – bu ruhiy uyg’onish holatida yashovchi, so’z orqali ilohiy haqiqatni inson qalbiga yetkazuvchi mavjudotdir. Uning g’azallarida ilhom, she’r, qalb, ishq va Haq o’rtasida uzviy bog’liqlik mavjud.

Rumiy va Navoiy ijodida umumiy jihatlar shundaki, ikkala shoir ham insonni tabiatidagi ijodiy imkoniyatlarni ochish orqali haqiqiy mohiyatini topishga chaqiradi. Ijod inson ruhiyatining yuksalishiga yordam beradigan, uni estetik va ma’naviy jihatdan boyitadigan asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Insoniyatning mavjudligi she’riyat orqali anglanadigan, estetik shakllarda namoyon bo’ladigan ijodiy jarayon sifatida ko’riladi.

Demak, ushbu kichik tadqiqotda qo’yilgan nazariy muammo va amaliy tahlillardan kelib, quyidagi ilmiy xulosalarni ulgari surish mumkin:

1. *Homo poetikus*ning nazariy asoslari va ijoddagi talqinlaridan kelib chiqib, o’ziga xos belgilari sifatida quyidagilarni qayd qilib qo’yish lozim:

- a. so’zga ilohiy yoki estetik kuch sifatida munosabatda bo’ladi;
- b. tashqi viqealarni emas, ichki kechinmalarni ifoda etadi;
- c. simvol, obraz, metaforalar orqali fikr yuritadi;
- d. so’z orqali borliqni badiiy qayta yaratadi;
- e. ijodkorlik – hayotiy vaziyat va ruhiy holat badiiy tasvirlaydi.

2. Navoiy va Rumiy ijodida aks etgan “homo poetikus” konsepsiysi insoniyatning ichki va tashqi dunyosini ijod orqali uyg’unlashtirishga qaratilgan chuqur falsafiy-adabiy qarashlarni o’zida mujassam etadi. Bu ijodiy falsafa Sharq adabiyotida insonning haqiqiy mohiyatini kashf etish va o’zlikni anglashning muhim vositasi sifatida namoyon bo’ladi.

3. Homopoetikus-buso’zorqaliHaqniizlovchi,qalbniuyg’otuvchi, jamiyatga ma’naviyat baxsh etuvchi insondir. U adabiyotda ijodkor obrazini inson ongning yuksak bosqichi sifatida ko’rsatadi. Navoiy va Rumiy bu obrazni ruhiy poklanish, Haqqa yaqinlik va ma’naviy yetuklik orqali ifoda etadi va ayni konsepsiya har ikki mutafakkir ijodida badiiy-falsafiy darajada mustahkamlanadi.

### **Adabiyotlar**

1. Alisher Navoiy. *Xazoyin ul-maoniy*. G'aroyib us-sig'ar. – Toshkent: Fan, 1987.
2. Алишер Навоий. *Лисонут-тайр*. – Тошкент: Фафур Фулом, 2019. – 288 б.
3. Бахтин, М. М. Проблемы поэтики Достоевского / М.М.Бахтин. – 4-е изд. – Москва: Советская Россия, 1979. – 318 с.
4. Gyote I.V. Faust. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2022. – 528 b.
5. Paul Ricoeur. *Interpretation Theory: Discourse and the Surplus of Meaning*. Fort Worth: Texas Christian University Press, 1976. – 107 p.
6. Жўрақулов У. Алишер Навоий “Хамса” сида хронотоп поэтикаси. / Монография. – Тошкент: Зиё-нашр, 2016.
7. Жўрақулов У. “Ҳайрат ул-аброр”да наът / “Алишер Навоий ва XXI аср” мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент: Машҳурпресс, 2020. – Б. 81-83.
8. Парандовский, Я. Сўз кимёси: бадиа-эссе. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – 464 б.
9. Асадов М. Альбер Камю ва Хуршид Дўстмуҳаммад прозасида абсурд қаҳрамон муаммоси/ “Сўз санъати сўзлиги”, 3 жилд, 2-сон. Тошкент. 2020 йил. – Б.117-126.